

O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TIZIMINING XALQARO TA'LIM STANDARTLARI BILAN HAMKORLIK ALOQALARI.

Isoqjonov Mirzoxid Sodiqjon o'g'li

*Yangi Namangan tumani 8-sonli DIMI tarix fani o'qituvchisi, magistr
mirzoxidisokjonov1997@gmail.com*

Annotatsiya: *Hozirda dunyoda jamiyat rivojlanishining asosiy tayanch qismi sifatida oliy va undan keyingi ta'lim tizimlarining o'rni juda katta hisoblanadi. Respublikamiz oliy ta'lim tizimining xalqaro ta'lim standartlariga integratsiyasini jadallashtirish va zamon ta'lablariga moslashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan istiqbolli rejalar o'z samarasini bermay qolmaydi.*

Annotation: *Currently, the role of higher and further education systems as the main support for the development of society in the world is very important. The ambitious plans being implemented to accelerate the integration of the higher education system of our republic into international educational standards and adapt it to the requirements of the times will not fail to bear fruit.*

KIRISH

Eng avvalo oliy ta'lim tizimimizning xalqaro ta'lim tamoyillaridan o'rganayotgan asosiy tajribalar asosida oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy va akademik mustaqillik berish yurtimizning bir qator davlat oliy ta'lim tashkilotlarida yo'lga qo'yib kelinmoqda.

Asosiy masala davlat ta'lim standartlarinng YUNESKO tomonidan qabul qilingan xalqaro ta'lim klassifikatsiyasi standartiga mos kelishi zarurati bilan bog'liq.

Vaholanki bu xalqaro standartda ta'lim sohasining barcha bosqichlariga oid me'yorlar aslida qanday bo'lishi, qay tarzda bo'lsa, yuqori natijalarga erishish mumkinligini aniq belgilab berilgan. Bizning ta'lim tizimimizda bu me'yorlar ko'zda tutilmagan. Holbuki, jahon tajribasiga ko'ra, milliy ta'lim standartlari o'z ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy xususiyatlariga ega bo'lgan davlatlar tajribasiga emas balki, xalqaro ta'lim klassifikatsiyasi standartiga asoslanishi zarur. Shunda jahon standartlari talablariga javob bera oladigan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoni oshadi.

ASOSIY QISM

Jahonning rivojlangan davlatlari qatori O'zbekistonda ham yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida – to o'tgan asrning oxirlarigacha 1970-yillarda ishlab chiqilgan xalqaro ta'lim klassifikatsiyasi standartidan foydalanib kelindi. Biroq dunyo ta'lim tizimiga kiritilgan keying yangiliklar natijasida ushbu asosiy konseptual hujjat ikki marta yangilandi.

Bizning ta'limimiz uchun muhim keyingi masala – bu mamlakatimizda xalqaro va Yevropa malakalar standartiga moslashgan ta'lim malakalari klassifikatsiyasi ishlab chiqish zaruratidir. Mavjudlari esa eski ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, mamlakatimizdagi bugungi demokratik jamiyat amaliyotida foydalanib bo'lmaydi. E'tiborlisi shundaki, davlatimizda yigirma yildan ortiq vaqt davomida bitiruvchilarga

berilgan diplomlarda kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beriladigan diplomlarda kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beradigan, xalqaro talablarga muvofiq tegishli malaka, ta'lim darajalari, xususan kasbi, ixtisosligi va boshqalar ko'rsatilmayapti. Natijada diplomlarimiz rivojlangan davlatlar tomonidan tan olinmay kelinmoqda.

Shuningdek, ta'lim sohasidagi so'nggi tendensiyalar va ishlanmalar haqida foydali ma'lumotlarga ega bo'lish uchun yetakchi akademik ekspertlarning axborotsessiyalari va taqdimotlarida ishtirok etish mumkin.

Yevropa Ittifoqi ta'lim ko'rgazmasi 2023-yilda yoshlarning chet elda o'qishga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash va ularga kelajakdagi muvaffaqiyatli karyera garovi bo'lgan to'g'ri ta'limni topishga yordam berishga qaratilgan. So'nggi paytlarda Osiyo davlatlarining rivojlanishida ta'lim hamkorligi va ta'limga kiritilgan investitsiya katta ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan mamlakatimizning Janubiy Koreya respublikasi, Yaponiya, Xitoy va singapur kabi rivojlangan Osiyo davlatlari bilan ta'lim sohasidagi hamkorliklari natijasida yurtimizda ta'lim sohasida ilmiy tadqiqotlarning samarasi tobora yuksalib bormoqda.

Xususan, 2014-yilda tashkil etilgan "INHA" universiteti, 2018-yil 15-oktabrda rasman faoliyatini boshlagan Toshkent shahridagi "Yodju" Texnika instituti, 2019-yil 23-avgust kuni Vazirlar Mahkamasining 714-sonli qaroriga asosan 2020-2021 o'quv yilidan faoliyatini boshlagan Farg'ona shahridagi "Koreya xalqaro universiteti"ni oliy ta'lim tizimidagi xalqaro hamkorlikning muhim natijalari sifatida e'tirof etish joiz. Shuningdek pandemiya davrida ta'lim tizimining izchil davom etishi uchun masofaviy (online) ta'lim shaklida olib borilishi ta'lim to'g'risidagi qonunga o'zgartirish kiritishga sabab bo'ldi. Ushbu davr mobaynida xalqaro hamkorlik doirasida o'tkazilishi rejalashtirilgan ilmiy anjumanlar ham masofaviy tarzda olib borildi. Bu esa o'z navbatida ta'limda masofaviy hamkorlikning huquqiy asoslarini joriy etishga sabab bo'ldi.

Hozirgi kunda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Xitoy Xalq Respublikasining Ta'lim Vazirligi o'rtasida 1999 yil 8 noyabrdan belgilangan "Ta'lim sohasida hamkorlik" to'g'risidagi shartnoma doirasida Xitoy oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning qator oliy ta'lim muassasalaridan 40 ta talaba, fan nomzodlari, va yosh mutaxassislar amaliyot o'tamoqdalar.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, XXR, Malayziya, Hindiston, RF va boshqalar bilan to'g'ridan-to'g'ri muassasalararo shartnomalar asosida hamkorlik olib borishmoqda. Ushbu shartnomalar professor o'qituvchilar va talabalar almashinuvi, ularning turli konferensiya va simpoziumlarda ishtirok etishi, qo'shma ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy maqolalar chop ettirish va hokazo vazifalarni ko'rib chiqadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda xalqaro ta'lim standartlari va nizomlari bilan hamkorlik va aloqalar o'rnatilishi yildan yilga kuchayib bormoqda. Bu jarayon avvalo o'zimizning yoshlarimiz kelajagi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilishi aniq. O'zbekiston

Respublikasining xalqaro ta'lim standartlariga moslashuvi va hamkorlik aloqalari yildan yilga kuchayib bormoqda. Buning misolida O'zbekiston Respublikasida tashkil qilinayotgan xorijiy ta'lim muassasalarining filiallari va bo'linmalarining keng imkoniyatlar va imtiyozlar asosida o'zimizning yoshlarimizga bilim va malaka berib kelishayotganlarida ko'rishimiz mumkin.

Hozirda mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarini dunyo reytingida "top 1000 talik" oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kirgizish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Shu o'rinda muhtaram prezidentimiz o'zlarining so'zlagan nutqlarida ham inson manfaatlari yo'lida ularning ilmiy savodxonligini oshirishda ko'plab loyihalar ishlab chiqilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nasiba E. Azimova, Lola S. Eliboeva, Gulya G. Habibova, Ulmasoy U. Kurbanova. Youth Is Moving Force of Civil Society. Eastern European Scientific Journal 01-2019.
2. Turdiyeva G.S, Ismoilova M.N. Masofadan o'qitishning Moodle tizimida ishlash. Buxoro 2014. 66 bet.
3. Kurbanova U.U. Trends in the development of pedagogical ideas in Uzbekistan in the years of independence. // International Journal of Applied Research 2020; 6(5): 90-94.
4. Абдуқодиров А.А. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. Монография нашриёти, 2009.
5. Бобур М. Правовая охрана объекта в интеллектуальной собственности–залог развития предпринимательской деятельности //Review of law sciences. – 2020. – Т. 2. – №. Спецвыпуск. – С. 90-96.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2-bob
7. <https://president.uz/oz/lists/view/3864>